

O`LMAS UMARBEOVNING “ODAM BO`LISH QIYIN” ROMANIDA ODAMIYLIK MUAMMOSI VA MEZONLARINING BADIY TALQINI VA TIL XUSUSIYATLARI

Ilmiy rahbar: Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna,
Filologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD)

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Alimardonova Gulsevar Sirojiddinovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 1-bosqich talabasi

Email: alimardonovagulsevar10@gmail.com

Telefon raqam: +998885064007

Annotatsiya: Ushbu maqola O`lmas Umarbekovning “Odam bo`lish qiyin” romaning badiiy talqini va til xususiyatlari haqida so`z boradi. Tadqiqot roman qahramonlari orqali ko`rsatiladigan “olimlik” va “odamlik” tushunchalari o`rtasidagi keskin qarama-qarshilikni nafaqat mazmun, balki til vositalari orqali qanday ifodalanishini o`rganadi. Badiiy tahlil bilan birga, roman tilining leksik, grammatik va stilistik xususiyatlari, shuningdek, dialoglarning psixologik va axloqiy muammolarni ochishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Badiiy mazmuni va til vositalari qo`llanishi asardan keltirilgan iqtiboslar asosida batafsil o`rganib chiqilqdi.

Kalit so`zlar: O`lmas Umarbekov, “Odam bo`lish qiyin”, insoniylik, til xususiyatlari, badiiy tahlil, o`zbek tili, leksik vositalar, dialoglar, stilistika.

O`lmas Umarbekovning “Odam bo`lish qiyin” romani o`zbek adabiyotida muhim o`rin tutuvchi ma`naviy-axloqiy asarlardan biri sifatida nafaqat o`z mazmuni, balki badiiy ifoda vositalari, til imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanishi bilan ham ajralib turadi. Asar nomining o`ziyoq – “Odam bo`lish qiyin” – muallifning asosiy g`oyasini ixcham ifodalaydi: inson bo`lib tug`ilish biologik jarayon, lekin haqiqiy “odam” bo`lish esa hayot davomida qaysidir harakatlar, tanlovlar orqali amalga oshadigan murakkab ma`naviy yo`ldir.

Roman voqeliklarida aks ettirilgan “insoniy” va “insoniylikdan emas” holatlarining badiiy talqinini, shu bilan birga, bu talqin tilning qanday vositalari orqali amalga oshirilishini kompleks tahlil qilish orqali biz asar mazmun-mohiyatini chuqurroq anglash imkoniga ega bo`lamiz. Buning uchun, avvalo, bu roman yozilgan davr va muhit haqida ma`lumotga ega bo`lishimiz zarur. “Odam bo`lish qiyin” romani 1970-yilda chop etilgan. Uning yozilgan davri 1960-yillar oxiri va 1970- yillar- Sovet O`zbekistonida chuqur, og`ir ijtimoiy va siyosiy o`zgarishlar, shuningdek, keng ko`lamda ildiz otgan korrupsiya va keyingi dahshatli qatag`onlarga olib kelgan “Paxta ishi” ning so`nggi bosqichi bo`lgan murakkab davrga to`g`ri keldi. Bu davrda rasmiy ravishda “do`stlik va tenglik” g`oyalari targ`ibi ostida ishonchsizlik, g`azab kayfiyatlari ustun edi. Asar “olimkik”, ya`ni tashqi muvaffaqiyat, unvon bilan “odamiylik”, ya`ni axloq, vafo, insoniylik o`rtasidagi asosiy farq va ziddiyatni to`g`ridan-to`g`ri o`sha davrda keng tarqalgan qadriyatlarning egilgishi- martaba, obro` va tashqi muvaffaqiyat, manfaatning haqiqiy insoniy fazilatlardan ustun qo`yilishi muammosini ochib beradi.

Adabiyotlar tahlili

Asar qahramoni Abdulla a`lochi talaba, oltin medal sohibi bo`lishiga qaramasdan shuhrarparastlikka moyil yigit sifatida namoyon bo`ladi. Gulchehra bilan uchrashgandayoq uning bu fe`li yozuvchi tomonidan Abdullaning xayolidagi orzularida, manaloglarida ustalik bilan ochib berilgan. Quyidagi asardan keltirilgan parcha ham buni isbotlay oladi: “Yo`q, -o`ylardi u, -bunaqa qizni shaharda uchratmaganman. Yo`q. Ochiq, kibor emas. Innaykeyin, juda chiroyli. Qani endi u bilan Shahar ko`chalarida yursang! Hammaning havasi kelishi turgan gap”. [1. 39-sahifa] Porloq kelajak va akademik unvon uchun o`z sevgisi, Gulchehrani qurbon qiladi va buning natijasida katta gunohkorlik va ruhiy halokatga uchraydi. Gulchehra esa oddiy, aqlli qishloq qizi sifatida tasvirlanadi. Qishloqni obodonlashtirish, me`mor bo`lish orzusida harakat qiladi. Abdullaning xiyonati va beparvoligi sabab hayoti fojia bilan yakunlanadi. Uning taqdiri sadoqat, ishonch kabi sof hislarning qo`pol dunyoviy hirs va manfaatlar oldida panoj topa olmasligi, ya`ni o`sha davr qiyofasini ochib

beradi. Asar mazmun-mohiyatini, til vositalarini chuqur o`rganish maqsadida bir necha adabiyotlar ko`rib chiqildi.

Metodologiya

Tadqiqotning nazariy asosi badiiy matn tahlili, lingvistik tahlil va qiyosiy adabiy tahlil tamoyillari orqali olib boriladi. Tadqiqot ob`ekti sifatida O`lmas Umarbekovning "Odam bo`lish qiyin" romani, predmeti sifatida esa undagi insoniylik muammosining badiiy ifodalanish usullari va til xususiyatlari tanlab olindi.

Asosiy tahlil usullari quyidagilarni o`z ichiga oladi:

Til xususiyatlari tahlili: Roman tilining leksik, grammatik va stilistik xususiyatlari, shuningdek, dialoglarning psixologik va axloqiy muammolarni ochishdagi roli o`rganiladi.

Badiiy vositalar tahlili: Tashbeh, talmeh, kinoya, zidlash, sifatlash kabi badiiy san`atlarning insoniylik muammosini ifodalashdagi o`rni ochib berildi.

Qahramonlar nutqi tahlili: Abdulla va Gulchehra obrazlarining nutq xususiyatlari, ularning leksik tanlovi va uslubiy farqlari tahlil qilindi.

Mazmun-semantik tahlili: Asarning muhim vogelarida til vositalarining qanday qo`llanilishi va ularning ma`naviy-axloqiy ma`nolari ochib berildi.

Tadqiqot jarayonida asarning turli nashrlari, shuningdek, asar haqidagi tanqidiy maqolalar va tilshunoslikka oid adabiyotlar manba sifatida ishlatildi. Jumladan, A. Tursunovning "Ijtimoiy romanlar tahlili" asari roman mazmuni va uslubini tushunish uchun asosiy manba bo`lib xizmat qiladi.

Natijalar va talil

Roman tilining asosiy xususiyatlari

"Odam bo`lish qiyin" romanining til xususiyatlari uning badiiy mazmuni bilan uzviy bog`liq holda rivojlanadi. O`lmas Umarbekov romanida o`zbek tilining quyidagi asosiy xususiyatlarini kuzatish mumkin:

Leksik qatlam: Roman leksikasida quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

Ma`naviy-axloqiy leksika: “vafo”, “sadoqat”, “halollik”, “mas’uliyat”, “insoniy”, “g’ayriinsoniy” kabi soʻzlar romanning asosiy mavzusini ifodalovchi markaziy leksik birliklar hisoblanadi.

Psixologik holatni ifodalovchi leksika: “tortinchoq”, “Shubha”, “iztirob”, “tashvish”, “xursandchilik”, “afsus” kabi soʻzlar qahramonlarning ichki kechinmalarini ochib berishda muhim vosita sifatida ahamiyat kasb etadi.

Hikoya qilish uslubiga xos leksika: “demak”, “ya`ni”, “endi”, “shunday qilib” kabi bogʻlovchi soʻzlar muallifning oʻquvchi bilan toʻgʻridan-toʻgʻri muloqot oʻrnatishi uchun xizmat qiladi.

Grammatik xususiyatlar:

Roman nutqida feʼl shakllarining keng qoʻllanilishi harakatning dinamikasini taʼminlab bergan.

Ogʻzaki nutqga xos qisqa, keskin gap tuzilmalari dialoglarda koʻproq uchraydi.

Murakkab sintaktik konstruksiyalar muallifning fikrlarini chuqurroq ifodalash imkonini yaratib beradi. Umarbekov romanida turli badiiy vositalardan mahorat bilan foydalangan:

Tashbeh (oʻxshatish): “Xuddi yosh bolaga oʻxshashadi”. [1. 63-sahifa] Bu jumla Gulchehra uchun ota-onasiga boʻlgan mas’uliyatni anglatadi.

Talmeh: Abdullaning otasi Gʻafurjon akaning aytadigan ertaklari va hikmatli soʻzlarida koʻproq namoyon boʻladi.

Takror: “Odam boʻlish qiyin, juda qiyin”. Asosiy gʻoyani taʼkidlashni maqsad qiladi.

Dialoglar ham asar mazmunini, qahramonlar xususiyatlarini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi:

Masalan, Abdulla va Gulchehra suhbatida Abdulla Gulchehraning onasining kasalligi oʻqishdan voz kechish uchun sabab boʻlmasligini va uning ham otasi kasal ekanligini beparvogina aytadi. Bu unda xudbinlik alomatlarini borligini isbotlaydi.

Romanning markaziy qarama-qarshiligi – bosh qahramon Abdullaning muvaffaqiyatga boʻlgan shuhratparastligi va uning axloqiy tanlovlari hamda insoniy fazilatlarining asl mohiyatini anglab yeta olmaganligi oʻrtasidagi ziddiyat – tilning quyidagi vositalari orqali ifodalanadi:

Leksik darajada:

Abdullaga nisbatan “aqlli”, “talantli”, “iqtidorli”, “olim”, “ishqiboz” kabi sifatlar ishlatiladi.

Gulchehraga nisbatan esa “vafodor”, “halol”, “samimiy”, “masʼuliyatli”, “mehnatsevar” kabi sifatlar qoʻllaniladi.

Muhokama

Tadqiqot natijalaridan shu ayon boʻladiki, Oʻlmas Umarbekov “Odam boʻlish qiyin” romanida insoniylik muammosini nafaqat mazmunan, balki til xususiyatlari orqali ham chuqur ifodalay olgan.

Tilning badiiy vazifasi nuqtai nazaridan, roman oʻzbek tilining ifoda imkoniyatlarining naqadar keng ekanligini namoyish etadi. Muallif tilni nafaqat vogelarni hikoya qilish, balki qahramonlarning ichki dunyosi, ularning maʼnaviy izlanishlari va axloqiy tanlovlarini ochib berish vositasi sifatida qoʻllaydi. Bu yondashuv romanning badiiy taʼsir kuchini sezilarli darajada oshira olgan.

Roman tilining zamonaviyligi shundaki, u oʻzbek adabiy tilining rivojlanishida muhim bosqich sifatida namoyon boʻladi. Umarbekov anʼanaviy hikoya qilish uslubi bilan zamonaviy psixologik tahlilni uygʻunlashtirishga erishadi. Bu yondashuv romanning nafaqat oʻtmishdagi, balki bugungi oʻquvchilar uchun ham dolzarbligini taʼminlaydi.

Til xususiyatlarining universal ahamiyati shundan iboratki, ular romanning asosiy mavzusini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Xulosa

Oʻlmas Umarbekovning “Odam boʻlish qiyin” romani nafaqat mazmunan, balki til xususiyatlari jihatidan ham oʻzbek adabiyotidagi eng muhim asarlardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

Roman tilining leksik, grammatik va stilistik xususiyatlari uning mazmuni bilan uzviy bog`liq holda rivojlanadi va asarning badiiy ta`sir kuchini oshirib beradi.

1) Dialoglar nafaqat vogelarni rivojlantirish, balki qahramonlarning insoniylik darajasini ochib berishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

2) Badiiy vositalarning qo`llanilishi (tashbeh, talmeh) romanning ma`naviy-axloqiy mazmunini chuqurlashtirish imkonini beradi.

3) Roman tilining o`ziga xos xususiyatlari o`zbek adabiy tilining rivojlanishida muhim bosqichni ifodalaydi va keyingi avlod yozuvchilariga ham o`z ta`sirini ko`rsatadi.

4) Til xususiyatlarini tahlil qilish asarning adabiy qiymatini to`liq anglashga yordam beradi va o`quvchiga muallifning badiiy mahoratini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Shu ma`noda, “Odam bo`lish qiyin” romani o`zbek tilining badiiy asarda qanchalik boy ifoda imkoniyatlariga ega ekanligining yorqin namunasi hisoblanadi va bu jihati bilan ham o`zbek adabiyoti tarixida alohida o`rin egallaydi.

Takliflar

1. Kelgusi tadqiqotlarda romandan yoshlar hayoti va ma`naviy-axloqiy muammolar haqida tahlil qilishda foydalanish.

2. Roman tilining xususiyatlari, ijtimoiy va madaniy kontekstda qo`llanilishini tahlil qilish.

3. Asarning zamonaviy yoshlarning qadriyatlar inqiroziga duch kelishini va sabablarini o`rganish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Karimova N. O`zbek romanida badiiy konseptlar. Toshkent: Fan, 2012.

2. Jo`rayev H. O`zbek romani va zamonaviylik. Toshkent: Fan, 1997.

3. Rahmatullayev M. Adabiyotshunoslik asoalari. Toshkent: Fan, 2010.

4. Tursunov A. Ijtimoiy romanlar tahlili. Toshkent: Fan, 2012.

5. Umarbekov, O. (2019). Odam bo`lish qiyin. Toshkent: “Yangi asr avlodi” nashriyoti.

6. Хасанов В. О`zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O`qituvchi, 2001.